

Sirdaryo viloyatida demografik holat

2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-yanvar holatiga Sirdaryo viloyatining doimiy aholisi soni 946,3 ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 1,7 foizga ko'paygan. 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni 21,0 ming nafarni, vafot etganlar 4,6 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 16,4 ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni 24 kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni 112 kishini, qayd etilgan nikohlar 6,8 mingtani, nikohdan ajralishlar 1,6 mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	946,3	ming kishi
Tug'ilganlar soni	21,0	ming kishi
Vafot etganlar soni	4,6	ming kishi
Xorijdan ko'chib kelganlar	24	kishi
Xorijga ko'chib ketganlar	112	kishi
Nikohlar soni	6,9	ming birlik
Nikohdan ajralishlar soni	1,6	ming birlik

II. Doimiy aholi soni


Sirdaryo viloyatida doimiy aholi soni 2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 946,3 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,5 ming kishiga, yani 1,7 foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda 406,9 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 43,0 %), qishloq joylarda esa 539,4 ming kishi (57,0 %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 470,9 ming kishini (49,8 %), erkaklar esa 475,4 ming kishini (50,2 %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi (1-yanvar holatiga, ming kishi)

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	930,8	946,3	101,7
Guliston sh.	102,1	104,6	102,4
Shirin sh.	19,4	19,4	100,0
Yangiyer sh.	49,1	50,2	102,2
<i>tumanlar</i>			
Oqoltin	56,6	57,5	101,6
Boyovut	141,5	144,1	101,8
Sayxunobod	83,9	85,4	101,8
Guliston	81,1	82,2	101,4
Sardoba	71,4	72,3	101,3
Mirzaobod	82,3	83,9	101,9
Sirdaryo	139,3	141,1	101,3
Xovos	104,1	105,6	101,4

Sirdaryo viloyatida 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **221,1** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **3,6** kishiga ortgan (2025-yil 1-yanvar holatiga 1 kv.km.ga **217,5** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatda 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **21042** kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **22,4** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar- dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **1071** nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **4624** kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,9** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **168** nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni,



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **21042** kishini, shundan o'g'il bolalar soni **10851** kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,6 %**), qiz bolalar soni **10191** kishini (**48,4%**) va shahar joylarida **8551** kishini (**40,6%**), qishloq joylarida **12491** kishini (**59,4 %**) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **4624** kishini, shundan erkaklar **2583** kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,9 %**), ayollar **2041** kishini (**44,1 %**) va shahar joylarida **2281** kishini (**49,3 %**), qishloq joylarida **2343** kishini (**50,7 %**) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi,




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatda 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **6778** birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,2** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **95** birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **1573** birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,7** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **68** birlikka ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **6778** birlikni, shundan shahar joylarida **3089** birlikni (**45,6 %**), qishloq joylarida **3689** birlikni (**54,4 %**) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **1573** birlikni, shundan shahar joylarida **834** birlikni (**53,0 %**), qishloq joylarida **739** birlikni (**47,0 %**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **6970** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **6946** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **24** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **7934** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **7822** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **112** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Sirdaryo viloyati	6970	6946	24	7934	7822	112
Guliston sh.	1828	1827	1	1335	1319	16
Shirin sh.	209	208	1	314	314	
Yangiyer sh.	908	897	11	705	703	2
<i>tumanlar</i>						
Oqoltin	398	398		471	458	13
Boyovut	861	861		965	962	3
Sayxunobod	372	372		448	444	4
Guliston	385	385		693	690	3
Sardoba	347	347		587	583	4
Mirzaobod	802	791	11	717	713	4
Sirdaryo	309	309		774	714	60
Xovos	551	551		925	922	3

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
Sh. Abdullayeva
67 236-70-00 (20-70)

Manzil:

